USMON AZIM DRAMATURGIYASIDA FOLKLOR VA ZAMONAVIY TEATR SINTEZI

(“Tong otgan taraflarda” dramatik dostoni sahnaviy talqini misolida)

M.Ahmedova

O‘zbek teatri va dramaturgiyasida folklor an’analarining sahnaviy transformatsiyasi haqida so‘z borganda, O‘zbekiston xalq shoiri, dramaturg Usmon Azim ijodiy merosiga alohida to‘xtalib o‘tish joiz. Muallif qaysi janrda qalam tebratmatsin — u she’riyatda (“Baxshiyona”), nasrda (“G‘oz”) yoki dramaturgiyada (“Tong otgan taraflarda”, “Alpomishning qaytishi”) bo‘lsin — xalq og‘zaki ijodining shoh asari bo‘lmish “Alpomish” dostoni motivlariga murojaat etgan. Epik dostonning shartli dramatik xarakatga ko‘chirilishi va Alpomish obrazining sahnada jonlantirilishi asarning badiiy-estetik ta’sir kuchini boyitib, tomoshabinda tahliliy va hissiylik sintezini shakllantiradi.

Asrlar davomida baxshilar repertuarida yashab kelgan epik asarlarning zamonaviy teatr sahnasiga ko‘chirilishi shunchaki o‘tmishni xotirlash emas, balki milliy o‘zlik va ildizlarni qayta anglash jarayonidir. D. Rahmatullayevaning ta’kidlashicha, «Usmon Azimning dramaturgik ijodi o‘zining falsafiy umumlashmalarga boyligi, so‘z qudrati, unga yuklangan ma’no, mahorat bilan yaratilgan badiiy xarakterlari va eng asosiysi, ko‘tarilgan ijtimoiy muammolari bilan e’tiborni tortadi»[1].

Adabiyotshunos M. Fozilova ushbu asar mavzusining epik va tarixiy ildizlarini tahlil qilib, quyidagicha yozadi: “Uning “Tong otgan taraflarda” dramatik dostonida “Alpomish” dostonida ilgari surilgan ulkan — xalqning milliy o‘zligini anglash, yashab qolish uchun kurash masalasi qalamga olingan. Aslida asar mavzusi ming yillik tarixga borib taqaladi. Ijodkor hamisha navqiron, dolzarb bo‘lgan ana shu mavzuga murojaat etar ekan, undan zamonamiz uchun muhim xulosalar chiqarish, tabir joiz bo‘lsa, tarixni bugungi kunga xizmat qildirishga urinadi”[2].

Dostonning epik ko‘lami sahna imkoniyatlari orqali ixcham, simvolik va metaforik shaklga keltiriladi. Bu esa teatr san’atiga falsafiy chuqurlik, shartlilik hamda kuchli vizual-akustik ifodaviylik bag‘ishlaydi. Usmon Azim pyesada qahramonlar xarakterini va asar g‘oyasini o‘tkir dialoglar va mizan-sahnalar vositasida izchil ochib berishga erishgan.

“Tong otgan taraflarda” dramatik dostoni O‘zbek Milliy akademik drama teatrida rejissyor Asqar Xolmo‘minov tomonidan sahnalashtirilgan. Ushbu sahna asarining jamoatchilik va teatr hayotidagi o‘rni haqida Sh. Abdurasulov matbuot sahifalarida shunday yozadi: “O‘zbek Milliy akademik drama teatrining repertuari

xalqona ruh, milliy qadriyatlardan so‘z ochuvchi yangi sahna asari bilan boyidi. Mazkur spektakl “Tong otgan taraflarda” nomi bilan sahnaga qo‘yilib, keng jamoatchilik e’tiboriga havola etildi. Ta’kidlash lozimki, olis o‘tmish bilan bog‘liq, qadim rivoyatlarni, falsafiy mushohada va tafakkur evrilishlarini sog‘ingan muxlislar uchun ushbu spektakl o‘ziga xos tuhfa bo‘ldi. Asarni sahnalashtirish yosh rejissyor Asqar Xolmo‘minovga ishonib topshirilgani ham teatr jamoasi yosh avlod vakillariga keng yo‘l ochib berayotganidan dalolat”[3].

Sahnalashtiruvchi rassom Flyura Gazizova va rejissyor tandemi spektaklning umumiy konsepsiyasiga mos keluvchi sahnaviy muhit yaratishga erishgan. Har bir dekorativ element, yorug‘lik va ranglar yechimi spektaklning ichki dramatik ruhiyatini va falsafiy g‘oyasini ochib berishga xizmat qiladi. Dekoratsiya va chiroqlarning organik sintezi milliy ruh hamda insoniy fojiani vizual jihatdan to‘liq namoyon etadi. Rassom tomonidan yaratilgan sahna bezaklari va liboslar davr ruhini, qahramonlarning ijtimoiy-psixologik holatini aniq aks ettirishi bilan e’tiborga loyiqdir.

Asarda gavdalangan personajlar shunchaki tarixiy yoki fantastik shaxslar emas, balki millatning yashab qolish instinkti, qismat va fidoiylik arxetiplaridir: Asarda Tongyorug‘ (Lola Eltoyeva) millatning fidoiy onasi va strategik mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Uning fidoiyligi cho‘qqisi — o‘z bolasining salomatligi bilan xalq ozodligi va or-nomusi o‘rtasidagi tragik tanlovda aks etadi. Oybarchin (Zilola G‘ulomova) o‘z o‘g‘li Yodgorbekni millat manfaati yo‘lida qurbon qilishiga jim qarab tursa-da, uning ruhiy iztiroblari va ichki kechinmalari aktrisa tomonidan yuksak psixologik mahorat bilan yetkazilgan. Yolg‘iz mergan (Ihtiyor Atajonov) esa Or-nomus va mafkura qurbonining timsolidir. Uning uchun yashash mezoniy darajasi — "xato qilmaslik"dir. Qahramonning xastaligi jismoniy xarakterga ega bo‘lmay, or-nomus masalasi, ruhiy-ma’naviy azob natijasidir. Aktyor I. Atajonovning "Boshqa dunyo bor ekan. Or-nomus tiriklikdan baland ekan" degan replikasi yuqori dramatik pafos va samimiy kechinma bilan ijro etilgan. Dostonlardagi markaziy qahramon bo‘lgan Alpomish ushbu sahna talqinida umid va ozodlik ramzi sifatida zindonda — nisbatan fonda namoyon bo‘ladi. Uning Tongyorug‘ni "osmonni ko‘tarib turgan inson" deb atashi dramaturgning qahramonlik fenomeniga bergan yangicha falsafiy ta’rifidir. Donishmandlik va ayyorlik sintezi bo‘lgan Bo‘lgan kal (Sobirjon Otajonov) tragik va komik unsurlarni o‘zida jamlaydi; u metafizik jihatdan "arsh va farsh" o‘rtasidagi bog‘lovchi vositachi rolini o‘taydi.

Spektaklda aktyorlar ijrosida "ichki kechinma san’ati" va mizan-sahna dinamikasi o‘zaro uyg‘unlashgan. Xususan, Tongyorug‘ va Folbin, Tongyorug‘ va Alpomish uchrashuvi mizan-sahnalarida temporitm va emotsional taranglik yuqori nuqtaga ko‘tarilib, tomoshabinni ruhiy katarsis holatiga olib keladi.

Teatr sintetik san’at turi sifatida har bir detalning o‘zaro mutanosibligini talab etadi. “Tong otgan taraflarda” spektaklida musiqiy bezak va akustika masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Qadimiy sibiziq va do‘mbira sadolari asarning musiqiy poydevorini tashkil etib, moziy bilan zamonaviylikni bog‘lovchi vositaga aylangan. Folbin do‘mbirasining ritmik zarblari, fonda yangrab turuvchi vaqt-simvolikasi va aktyorlar nutqining artikulyatsion aniqligi spektaklning umumiy akustik hamda semantik ta’sirchanligini oshirgan.

Usmon Azimning “Tong otgan taraflarda” dramatik dostoni va uning Milliy akademik drama teatri sahnasidagi talqini folklorik matn va zamonaviy rejissura sintezining muvaffaqiyatli namunasi hisoblanadi. Rejissyor A. Xolmo‘minov, rassom F. Gazizova hamda aktyorlar ansamblining izchil hamkorligi natijasida epik doston sahnada chuqur falsafiy, metaforik va psixologik dramaga aylangan. Spektakl tomoshabinga o‘zlikni anglash, milliy or-nomus va ma’naviy ildizlarga sadoqat kabi mangu qadriyatlarni estetik va emotsional ta’sir vositalari orqali yetkazib berishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatullaeva, D. Tong hamisha otishi kerak... [Maqola] / D. Rahmatullaeva // Teatr. — 2014. — № 4. — S. 36–37.
2. Fozilova, M. Alpomishga munosib izdosh [Maqola] / M. Fozilova // Tafakkur. — 2015. — № 2. — S. 85–87.
3. Abdurasulov, Sh. "Tong otgan taraflarda" [Maqola] / Sh. Abdurasulov // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. — 2014. — 1-b.
4. www.ziyouz.com (16 iyul 2015)